

SHAHARLARNI QAYTA QURISH VA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xidirova Sarvinoz Erkin qizi

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti 3-bosqich talabasi

Tarixiy shaharlarni qayta qurish jarayonlarini takomillashtirish mavzusini yoritishdan avval shaharsozlik tushunchasini keltirib o'tish maqsadga muvofiq. Shaharsozlik (shahar qurish) me'morlikning yirik sohasi, shahar bunyod etish nazariyasi va amaliyoti aholi yashaydigan hududlar (turar joylar)ni loyiha asosida rejalashtirish. Shaharsozlik ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya gigiyena, qurilishtexnika, badiiy me'moriy masalalar majmuini qamrab oladi. Shaharsozlik majmui me'morlik va qurilish bunyodkorligi, jamiyatning ijtimoiy tizimi va ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darajasi, madaniyati, tabiiy iqlim sharoitlari va milliy o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Shaharsozlik o'z navbatida qishloq aholi turar joylarini rejalash, landshaftme'morligi, bog' barpo etish, tumanlarni rejalash, sanoat korxonalari, dam olish mintaqalarini ratsional ravishda joylashtirish, ekologiya masalalari kabi bir necha tarmoqlarga bo'lingan. Shaharsozlikda turar joylarning nafaqat me'moriy badiiy qiyofasiga, estetik jihatlariga, balki obodonlashtirishga yo'llar, ayniqsa, avtomobil yo'llarita, infratuzilma (suv, oqava-kanalizatsiya, gaz, elektr va boshqalar muhandislik ta'minotlari)ga katta e'tibor beriladi. Shaharsozlikda yangi shahar, shaharcha, qishloqlarni qurish, qadimiy shaharlarni muhofaza qilish (rekonstruksiya qilish), me'moriy majmualar ko'proq turar joy mavzularini bunyod etish bosh reja asosida amalga oshiriladi, bunda loyihalarni ishlab chiqish (tuzish) muhim o'rin tutadi. Bunday loyihalar buyurtmalar orqali Shaharsozlikka ixtisoslashgan ilmiy tekshirish va loyihalash institutlarida bajariladi. Toshkentda O'zbekiston shaharsozlik loyihalash va ilmiy tekshirish instituti (O'zLITI), Toshkent Boshtarh loyihalash va ilmiy tekshirish instituti va boshqalar shunga o'xshash institutlar faoliyat ko'rsatadi. Shaharsozlik qadimiy tarixga ega. Mil. av. 3-ming yillik o'rtalari 2-ming yillik boshlarida qadimiy madaniyat davrida aholi kent manzillarini qurishda muntazam rejalashtirish xususiyatlaridan foydalanilgan (Qad. Xitoy, Misr, Eron va boshqalar). Yunoniston shaharlar siyosiy va diniy markazlarni ajratgan holda rejalashtirilgan bo'lsa (akropol va boshqalar), qadimiy Rimda shaharlarni to'g'ri burchakli dahalarga bo'lish uslubi qo'llanilgan (Pompey, Ostiya va boshqalar), Sh. nazariyasi paydo bo'lgan (Vitruviy risolasi, mil. av. I asr). O'rta asrlar Yevropasiga shaharlarni stixiyali, qal'a devorlari atrofida chiziqli va aylanahalqali rejalashtirish xos bo'lgan (Nyordligen Germaniyada, Krakov Polshada, Praga Chexiyada va boshqalar). Rossiyada shaharlar tepaliklarda, daryolar kuyiladigan joylarda bunyod etilgan (Kiyev, Chernigov, Novgorod, Pskov va boshqalar), hamma ko'cha (yo'llar) shahar darvozasiga yoki shahar savdo maydonlariga olib borgan. Aylanahalqali rejalash shahrining mumtoz namunasi o'rta asrlardagi Moskvadir.

O'zbekiston hududida joylashgan shaharsozlik na'munalarini qadimdan hozirgacha bo'lgan rivojlanish jarayonini kompozitsion jixatdan beshta turga bo'lish mumkin:

1. Atrofi yo'lakli devor bilan o'ralgan, ichida aytarli imoratlari bo'lmagan, shahar sahnida barcha binolar chodirdan tiklangan "chodirli" shaharlar (ba'zi manbalarda "var" ko'rinishidagi shaharlar)

2. Markazidan shaharning asosiy ko'chasi kesib o'tuvchi, shahar to'rida ma'muriy, savdo, jamoat binolari joylashgan, bir darvozali to'rtburchak shaklidagi dual shaharlar.

3. Ark shahriston va robbotdan tashkil topgan uch qismli shaharlar.

4. Eski va yangi qismlardan iborat bo'lgan ikki tuzilmali shaharlar.

5. Texnika taraqqiyoti natijasida modernizatsiyalashayotgan shaharlar. Shaharlar konsentrik, sektorli va ko'p yadroli rivojlanish modellariga ega bo'lgan.

Shaharlarning kengayib borishi natijasida ular bir turdan boshqasiga o'tib borgan. Shuningdek shaharlar maydoni ulov turlariga ham bevosita bog'liqdir. Masalan tarixiy shaharlar 4-5 km kenglikdagi o'lchovga ega bo'lgan. Bunda kishilarning piyoda shaharning bir chetidan markaziga borishining eng maqbul vaqti inobatga olingan. XIX-XX asrlarda ulov turlarining rivojlanib borishi bilan shahar hududi ham kengaya borgan. Shu tariqa hozirda zamonaviy shaharlar hududi 20-30 km atrofida kengaygan.

Tarixiy shaharlarni qayta qurish loyihalarini bajarishdan oldin ushbu hududlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi jarayonidagi evolutsion o'zgarishlarni tub mohiyatini tahlil etish katta ahamiyatga ega. Bunda tarixiy shaharlarning ikki asosiy jihatlarni: o'zak va to'qima kabilarni ajratgan holda, ayni vaqtda kompleks tarzda tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz zaminidagi ko'plab shaharlar uzoq tarixga ega. Ushbu shaharlarning aksariyatida hozirgi kunda ham hayot davom etmoqda va yangidan-yangi zamonaviy binolar qurilmoqda. Bu jarayon ayniqsa mustaqillik yillarida yanada keng avj oldi. Bunday hududlarda turli tarixiy va badiiy qiymatlarga ega qadimgi bino va inshootlar ham mavjud. Zamonaviy sharoitda ularning ba'zilari saqlanadi, qiymatga ega bo'lmaganlari esa buzilib, o'rniga yangi imoratlar tushadi. Tarixiy joylarning me'moriy qiyofasi o'zgarishi jarayonida tarixiy ko'cha va maydonlarni yangilash zarurati paydo bo'ladi. Chunki ular zamonaviy talablar parametrlariga mos kelmay qoladi. Shaharda doim dinamik jarayonlar, ya'ni o'zgarishlar bo'lib turadi. Shaharlarning fazoviy rivojlanishini nazorat qilish qadimiy shaharlar paydo bo'lgandan boshlab mavjud bo'lib kelgan. Sanoat revolutsiyasiga qadar shaharlarni mudofaa devorlari muhofaza qilib turgan. Keyinchalik yashil xalqalar paydo bo'lgan.

Tarixiy shaharlarning rivoji (qayta qurilishi) jaryonida uch asosiy holat kuzatiladi:

1. Shahar bir hududdan boshqa, yaqin hududga ko'chadi (masalan, qadimgi (Shosh) va ilk o'rta asrlarda (ming o'rik)gi Toshkent) ;

2. Shaharning bir qismida tarixiy tizim o'zgartiriladi (masalan, Qo'qonning janubiy-g'arbiy qismi (Rus shahri));

3. Shaharga tutash holda yangi hudud qo'shiladi (XIX asrning 2- yarmidagi Toshkent, Samarqand shaharlari).

Shaharlar (yoki uning qismlari) hayotidagi o'zgarishlar asosan 4 shakldagi jarayon sifatida o'tishi mumkin: shaharning kengayish jarayoni; shahar sifatlarining yuksalish jarayoni; shaharning bir joyidan boshqa joyiga ko'chish jarayoni; shahar (yoki qismi) ning tanazzuli. Shaharning me'moriy -badiiy muhitini qayta qurish kompleks tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda shaharning qadimiy markazini tarixiy meros sifatida qarash lozim bo'ladi va uni mumkin qadar o'z holicha saqlagan ma'quldir. Qayta qurish loyihalarida muhandislik tarmoqlarini ham e'tiborga olish asosiy vazifalardan biridir. Zamonaviy rekonstruksiya arxitekturaviy me'rosni saqlash, ularni muhofaza zonalariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish muhim ahamiyatga egadir.

Qayta qurilayotgan hududlar ko'rinishida tarixiy shahar markazlari qurilmalarining o'ziga hosliklari saqlanishi lozim. Tarixiy shahar markazini qayta qurishda, birinchi navbatda, ishlab chiqarish obyektlarini rekonstruksiya qilinadigan asosiy bino sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Shunda tarixiy hududlarda ishlab chiqarish obyektlari o'rnida obodonlashtirish, dam olish zonasi va transport qurilishini kehgaytirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu albatta, ushbu hududning ekologik muhitini yaxshilaydi va turizm imkoniyatlarini oshiradi.

Qayta qurish va shaharning tarixiy hududlarini obodonlashtirish ishlari quyidagilarni o'z ichiga olgan tizimli vazifa sifatida yechilishi kerak.

- Arxitektura- qirilish loyihalarini samarali va tizimli amalga oshirish uchun uzoq davrga mo'ljallangan tarixiy shaharlar bosh tarxlarini ishlab chiqish;

- Madaniy me'ros obyektlarini hisobga olish, baholash va ulardan samarali foydalanish yo'llarini belgilash;

- Zamonaviy obyektlarni tarixiy hududlarda joylashtirishda an'anaviy uslublardan va shakllardan foydalanish;

- Rekonstruksiya qilinadigan hududlarning muhim klassifikatsiya belgilari ularning shahar hududida joylashgan joyi hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, hududlarning asosiy uchtasini ajratish mumkin; markaziy, shahar cheti va o'rta qismida joylashgan. Bu yerda shuningdek, hududlarning transport magistrallari va ko'chalarga yaqin joylashganligini ham e'tiborga olish kerak.

Hududlarning eng ko'p tarmoqlangan klassifikatsiyasi, ularning fazoviy- rejaviy tuzilishi hisoblanadi. Jumladan, hududlar qavatlariga qarab (kam qavatli, o'rta qavatli, ko'p qavatli); zichligiga qarab (ekstensiv, yuqori zichlikda); capital qurilganligiga qarab (avariya holatida, eskirgan holatida, yaroqli va boshqalar); rejaviy tashkillashtirilishi va obodonlashtirish darajasiga bog'liqligi bilan harakterlanadi.

Har qanday hududni rekonstruksiya qilishning strategik maqsadiga ekologik jihatdan havfsizlikni va hayot sifatini, madaniy me'rosni saqlashni shuningdek barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Tarixiy shaharlar har - hil rejaviy strukturada: erkin, to'g'ri burchakli, radial, nursimon, aralash va boshqa rejalarda bo'lishi mumkin. Shu sababli hududlarni quyidagi jixatlarga qarab qayta qurish mumkin: qurilgan davriga qarab; tarixiy madaniy qiymatiga qarab; shaharda joylashgan joyiga qarab; fazoviy-rejaviy parametrlariga qarab; funksional ahamiyatiga qarab; ijtimoiy demografik belgilariga qarab.

O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatining butun tizimini tubdan qayta tashkil etishni, shaharsozlikning normativ-huquqiy va institutsional bazasini yanada takomillashtirishni, shaharsozlik hujjatlari sifatini oshirishni taqozo etmoqda. Moddiy-texnika bazasi yuqori darajada bo'lgan va o'z faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadigan loyiha tashkilotlarining keng miqyosli hududiy tarmog'i mavjud emasligi, ilg'or xorijiy tajriba, arxitektura va dizayn sohasidagi yutuqlardan, shuningdek, innovatsion dasturiy yechimlardan yetarlicha foydalanilmasligi shaharsozlik hujjatlarini loyihalashtirish va ishlab chiqish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bularning hammasi qurilish sohasida davlat mablag'lari va resurslaridan nooqilona foydalanilishiga olib kelmoqda. Ushbu kamchiliklarni tuzatish ushbu sohaning rivojlanishiga, kengayishiga hamda davlat byudjetini o'sishi olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Raxmonov, D., & Toshpo'latova, B. (2021). Preservation of historical monuments of ferghana region. *Scientific progress*, 1(6), 458-462.
2. Isamuhamedova, D.U., Mirzayev, M.K. "Zamonaviy shaharsozlik nazariyasi".
3. Nurmatov, D. O., Botirova, A. R., & Omonova, Z. (2021). Landscape solutions around the roads.
4. Toshpolatova, B. R., & Nurmatov, D. O. (2021). Combination of landscape compositions with architectural styles. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(12), 1-7.
5. Салимов, О. М., & Журабоев, А. Т. (2018). Роль рекреационных зон в городской структуре (на примере города Ферганы). *Проблемы современной науки и образования*, (12 (132)), 107-110.
6. Жураев, У. Ш., & Турсунов, К. К. (2020). ФарФОНа вилояти тарихий шахдрларидаги турар-жой биноларида ганч ва ёФОч уймакорлигининг шакилланиши ва ривожланиши. *Science and Education*, 1(3), 264-267.
7. Sagdullayevich, R. S., & Adilov, Z. H. (2021). Landscape Works in the Aral Sea Region Effective Organization. *Middle European Scientific Bulletin*, 19, 41-45.